

# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



MARKETING  
INNOVATSIYA  
BRENDING  
SAVDO  
RAQAMLI  
TADQIQOT  
BIZNES



**№ 6 - SON**

**2025-YIL, IYUN**

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

[www.marketingjournal.uz](http://www.marketingjournal.uz)

ELEKTRON POCHTA:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

### MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA



### BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY'ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

**Musyeva Shoirazimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Djurabayev Otabek Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

**Jumayev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

**Eshov Mansur Po'latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

**Nazarova Ra'no Rustamovna**, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Usmonov Bunyod Aktam o'g'li**, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

**Elektron nashr** 316 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-iyunda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>LOYIHALASHTIRISH TASHKILOTLARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....</b>                                                          | <b>6</b>   |
| <b>Buriyev Xakim Toshimovich, Usmonov Ilxom Achilovich, Murodov Rustam Toxir o‘g‘li</b>                                                                                        |            |
| <b>XARIDORLAR QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA NAFLILIK OMILINING ROLI: SMARTFONLAR BOZORI MISOLIDA MARKETING TADQIQOTI.....</b>                                                  | <b>14</b>  |
| <b>Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li</b>                                                                                                   |            |
| <b>O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....</b> | <b>21</b>  |
| <b>Sirojiddin Yangiboev Juramurodovich</b>                                                                                                                                     |            |
| <b>AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISH .....</b>                                                                                      | <b>31</b>  |
| <b>Berdaliyev Javohir Jahongir o‘g‘li</b>                                                                                                                                      |            |
| <b>XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDA HUDUDIY MARKETINGNING RIVOJLANISH MODELI .....</b>                                                                                          | <b>42</b>  |
| <b>Boltayev Jasurbek G‘ulomovich</b>                                                                                                                                           |            |
| <b>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KADRLARNI TANLASH VA SARALASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA UNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI.....</b>                           | <b>51</b>  |
| <b>Ibragimova Sevara Kabildjanovna</b>                                                                                                                                         |            |
| <b>KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATI SHAKLLANISH JARAYONLARI TAHLILI.....</b>                                                                           | <b>58</b>  |
| <b>Jurayev Elyorbek Sobirjon o‘g‘li</b>                                                                                                                                        |            |
| <b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY BOSHQARUV TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI.....</b>                                                      | <b>65</b>  |
| <b>Mahmudov Bahriddin Jo‘rayevich</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>O‘ZBEKISTON MINTAQALARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA ILMIY VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....</b>                                                              | <b>74</b>  |
| <b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturboyevich</b>                                                                                                                                   |            |
| <b>IQTISODIY RIVOJLANISHNING IKKI OMILI: YASHIL IQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIK.....</b>                                                                             | <b>84</b>  |
| <b>Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Qurbonova Aziza Shavkatovna</b>                                                                                                        |            |
| <b>SERVIS LOGISTIKASI TASNIFI VA UNI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR ....</b>                                                                                                          | <b>90</b>  |
| <b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>TEMIR YO‘L TRANSPORTINING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI: TAHLIL VA BAHOLASH .....</b>                                                                                           | <b>100</b> |
| <b>Raximov Xasan Shukurjonovich</b>                                                                                                                                            |            |
| <b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA YO‘NALTIRILGAN ERP TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI RAQAMLI IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH .....</b>                                                   | <b>109</b> |
| <b>Azizov Abdulla Abdisalamovich</b>                                                                                                                                           |            |

|                                                                                                                                |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>DEVELOPMENT TRENDS OF YOUTH TOURISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS.....</b>                                          | <b>116</b> |
| <b>Samiyev Siroj Saitovich, Umurzoqova Shakhnoza Shukhrat kizi</b>                                                             |            |
| <b>MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....</b>                          | <b>122</b> |
| <b>Sapayeva Fazilat Norbayevna</b>                                                                                             |            |
| <b>AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISH: YAGONA RIVOJLANISH YO'LI .....</b>                                                    | <b>128</b> |
| <b>Qobilov Rustam Shuhrat o'g'li</b>                                                                                           |            |
| <b>MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....</b>                                       | <b>138</b> |
| <b>Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>                                                                                       |            |
| <b>YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINING XORIJ TAJRIBALARI.....</b>             | <b>144</b> |
| <b>Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi</b>                                                                                        |            |
| <b>ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....</b>                 | <b>150</b> |
| <b>Baxromov Xudoyor Xabibullo o'g'li</b>                                                                                       |            |
| <b>АНАЛИЗ РЫНКА ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....</b>                                                            | <b>156</b> |
| <b>Икрамов Акбар Фарход угли</b>                                                                                               |            |
| <b>TIJORAT BANKLARIDA REBRENDING VOSITASIDA MARKETING INNOVATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI .....</b>                | <b>165</b> |
| <b>Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi</b>                                                                                    |            |
| <b>ИННОВАЦИОННЫЕ ЭКОСИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРОВ: ИНТЕГРАЦИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ГЛОБАЛЬНУЮ ИННОВАЦИОННУЮ СЕТЬ .....</b> | <b>172</b> |
| <b>Усманова Нозимахон Икрам кизи</b>                                                                                           |            |
| <b>NAMANGAN VILOYATIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISHI YO'LLARI.....</b>                                                 | <b>178</b> |
| <b>Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi</b>                                                                                      |            |
| <b>АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ, ПРЕДОСТАВЛЯЮЩИХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЕ УСЛУГИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....</b>                                 | <b>184</b> |
| <b>Алимова Шахноза Октямовна</b>                                                                                               |            |
| <b>HUDUDLARNING TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....</b>                                    | <b>194</b> |
| <b>Maksumov Azizxon Nodir o'g'li</b>                                                                                           |            |
| <b>ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ .....</b>   | <b>203</b> |
| <b>Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич</b>                                                                   |            |

|                                                                                                                                                                                      |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>MOYLI EKINLAR YETISHTIRUVCHI FERMER XO‘JALIKLARIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI.....</b>                                                           | <b>211</b> |
| <b>Valiyeva Aziza Anvar qizi</b>                                                                                                                                                     |            |
| <b>MINTAQALARDA SANOAT TARMOG‘I SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>                                                                                       | <b>219</b> |
| <b>Mirzayeva Intizor Ergashevna</b>                                                                                                                                                  |            |
| <b>STRATEGIK MARKETING YONDASHUVLARI ASOSIDA MATBAA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....</b>                                                                          | <b>228</b> |
| <b>Xolmirzaeva Feruza Abdullaevna</b>                                                                                                                                                |            |
| <b>XUSUSIY TA‘LIM MUASSASALARINING IJOBIY IMIJINI BELGILOVCHI ASOSIY OMILLAR .....</b>                                                                                               | <b>235</b> |
| <b>Odilova Sitara Sayfitdin qizi</b>                                                                                                                                                 |            |
| <b>SOLIQ MA‘MURCHILIGINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH VA RAQAMLASHTIRISH YUZASIDAN 2026-YILDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN ISHLAB CHIQLGAN TAHLIL VA TAKLIFLAR .....</b> | <b>243</b> |
| <b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>                                                                                                                                               |            |
| <b>QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY HOLATI .....</b>                                                            | <b>257</b> |
| <b>Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li</b>                                                                                                     |            |
| <b>ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....</b>                                                               | <b>264</b> |
| <b>Акрамов Бурибек Фахриддин угли</b>                                                                                                                                                |            |
| <b>OLIY TA‘LIM MUASSASALARI UCHUN DUAL TA‘LIMNING AFZALLIKLARI .....</b>                                                                                                             | <b>272</b> |
| <b>Karimov Muzaffar Abdumalik o‘g‘li</b>                                                                                                                                             |            |
| <b>SANOAT ISHLAB CHIQRISHIDA SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH .....</b>                                                                                       | <b>278</b> |
| <b>Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>KICHIK BIZNES EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH BAHOLASH MODELINING ILMIY ASOSLARI VA HUDUDIY AMALIYOTI.....</b>                                                                | <b>287</b> |
| <b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>                                                                                                                                            |            |
| <b>MINTAQADA INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....</b>                                                                                           | <b>297</b> |
| <b>Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich</b>                                                                                                                                                  |            |
| <b>HUDUDIY INNOVATSION SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARINI INSTITUTSIONAL ADAPTATSIYA QILISH IMKONIYATLARI .....</b>                                                   | <b>305</b> |
| <b>G‘aniyev Sanjar Poziljon o‘g‘li</b>                                                                                                                                               |            |

## MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Annayev Abdurasul Abdurashidovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi

va audit kafedrası assistenti

E-mail: [00\\_bek94@mail.ru](mailto:00_bek94@mail.ru)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada madaniyat sohasi muassasalarining buxgalteriya hisobi va ularni auditdan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Xususan, davlat kino muassasalari misolida moliyaviy hisobot yuritish, intellektual mulk obyektlarini hisobga olish, loyihaviy smetalar asosida xarajatlarni rejalashtirish kabi jihatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari madaniyat muassasalarida auditorlik faoliyatini amalga oshirishda differensial va tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Maqolada buxgalteriya hisobini yuritishning amaliy muammolari, shuningdek, ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham bayon etilgan. Ushbu yondashuv madaniy tashkilotlarda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni kuchaytirish hamda buxgalteriya va auditorlik ishlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** madaniyat muassasalari, buxgalteriya hisobi, davlat kino muassasalari, auditorlik faoliyati, moliyaviy nazorat, smeta, intellektual mulk, shaffoflik, differensial yondashuv, tizimli audit.

### Аннотация

В статье анализируются особенности учета и аудита учреждений культуры. В частности, на примере государственных учреждений кинематографии были изучены такие аспекты, как финансовая отчетность, учет объектов интеллектуальной собственности, планирование расходов на основе проектных смет. Результаты исследования показали необходимость дифференцированного и системного подхода к аудиторской деятельности учреждений культуры. В статье также излагаются практические проблемы учета, а также предложения и рекомендации по их решению. Такой подход служит обеспечению финансовой прозрачности в организациях культуры, повышению эффективности использования бюджетных средств, улучшению качества учетно-ревизионной работы.

**Ключевые слова:** учреждения культуры, бухгалтерский учет, государственные учреждения кинематографии, аудиторская деятельность, финансовый контроль, сметы, интеллектуальная собственность, прозрачность, дифференцированный подход, системный аудит.

### Abstract

This article analyzes the specific aspects of accounting and auditing of cultural institutions. In particular, on the example of state cinema institutions, such aspects as financial reporting, accounting for intellectual property objects, and planning expenses

based on project estimates were studied. The results of the study showed the need for a differential and systematic approach to auditing activities in cultural institutions. The article also describes practical problems of accounting, as well as proposals and recommendations for their solution. This approach serves to ensure financial transparency in cultural organizations, enhance the effective use of budget funds, and improve the quality of accounting and auditing work.

**Keywords:** cultural institutions, accounting, state cinema institutions, auditing activities, financial control, estimates, intellectual property, transparency, differential approach, systematic audit.

## KIRISH

Madaniyat sohasi muassasalarining buxgalteriya hisobi umumiy byudjet tashkilotlari hisobidan farqli jihatlariga ega bo'lib, bu ularning notijorat, ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishda faoliyat yuritishi, moliyalashtirish manbalarining turli xilligi va asosiy faoliyat natijalarining pul ko'rinishida emas, balki ijtimoiy samaradorlik asosida baholanishi bilan bog'liq.

Madaniyat muassasalari – teatr, muzey, kutubxona, san'at maktabi va boshqa shu kabi tashkilotlar – odatda davlat byudjeti, grantlar, homiylik mablag'lari hamda o'z faoliyatidan tushadigan daromadlar (chipta savdosi, ko'rgazma to'lovlari) hisobiga moliyalashtiriladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniyat sohasi muassasalarida buxgalteriya hisobining umumiy xususiyatlari, o'ziga xos jihatlari va imkoniyatlari haqida ko'plab olimlar o'zlarining ishlarida bayon etganlar. Jumladan, V.V.Semenixin o'zining tadqiqotlarida madaniyat sohasida buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari, madaniyat muassasalarida kelgusidagi xarajatlarining hisob faoliyati masalalariga e'tibor qaratgan. Madaniyat muassasalari o'z faoliyatini amalga oshirishda nafaqat joriy hisobot davriga, balki quyidagi xarajatlarga ham tegishli bo'lgan xarajatlarni amalga oshirishi mumkin. Bunday xarajatlar kelgusi davrlarning xarajatlari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda madaniyat muassasalarining aksariyati tijorat kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan, shuning uchun keling, tijorat madaniyat tashkilotining buxgalteriya hisobida kelgusi davrlarning xarajatlarini aks ettirish tartibi juda muhimdir [1].

Mahalliy olimlarimizdan L.V.Davidyan ham izlanishlarida bozor sharoitida madaniyat muassasalari faoliyatining xususiyatlari va ularning samaradorligini tahlil qilish masalalari to'g'risidagi fikrlarni ilgari suradi [2]. Moliyaviy axborotning ishonchligini tasdiqlash uchun auditor xizmatlar sohasi buxgalteriya hisobining o'ziga xos operatsiyalarini tartibga soluvchi qonunchilik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi lozimligi haqida aytadilar.

Xo'jalik operatsiyalarini va buxgalteriya hisobi chetlari saldosi tekshirish uchun obyektlar bo'yicha (audit segmentlari buxgalteriya hisobi obyektlari bilan mos keladi) va siklik (audit segmenti xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda yuzaga keladigan hisob obyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, ya'ni xo'jalik operatsiyalari sikli) yondashuvlarni qo'llashi mumkin.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi obyektivlik, izchillik, tizimlilik, tahliliy fikrlash va dalillarga asoslangan yondashuv tamoyillariga tayangan holda olib boriladi. Shu asosda tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan foydali tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat kino muassasalari o'z faoliyatini bir nechta moliyaviy manbalar hisobiga yuritadi: davlat byudjeti, homiylik mablag'lari, grantlar, chiptalardan tushgan daromadlar, onlayn platformalardan yoki telekanallarga film sotish orqali olingan mablag'lar. Har bir manba buxgalteriya hisobida alohida ko'rsatiladi va maxsus tartibda nazorat qilinadi. Har bir kino loyihasi (film, serial, reklama roligi va hokazolar) uchun alohida xarajat smetasi tuziladi. Ushbu smetalar ishlab chiqarishning har bir bosqichini qamrab oladi: ssenariy yozish, aktyorlar tanlash, suratga olish, montaj, reklama va tarqatish ishlari.

Kino muassasalarida mavjud aktivlar tarkibi boshqa tashkilotlarga qaraganda farq qiladi: suratga olish texnikalari, rekvizitlar, montaj stansiyalari, videoyozuvlar arxivi, dekoratsiyalar va boshqa jihozlar alohida asosiy vosita sifatida yuritiladi. Ularning eskirish me'yori, amortizatsiyasi va real qiymati buxgalteriya hisobida aniq aks ettiriladi. Kino muassasalari tomonidan ishlab chiqarilgan filmlardan tushgan daromadlar (chipta sotuvi, litsenziyalash, televideniye, internet) alohida maxsus daromadlar hisobida yuritiladi. Bu mablag'lar keyinchalik boshqa loyihalarni moliyalashtirishda foydalanilishi mumkin.

Bu xususiyatlar kino sohasida buxgalteriya hisobi yuritilishini nafaqat texnik moliyaviy jarayon, balki ijodiy mahsulotni iqtisodiy jihatdan asoslash, qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash va davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish vositasi sifatida ko'rsatadi.

Ularning buxgalteriya hisobi esa quyidagi asosiy o'ziga xosliklarga ega:

Xarajatlarning smeta asosida yuritilishi. Moliyaviy faoliyat oldindan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Har bir xarajat yo'nalishi belgilangan limitlar doirasida ruxsat etiladi.

Ixtisoslashgan aktivlar hisobini yuritish. Madaniyat muassasalarida mavjud bo'lgan san'at asarlari, tarixiy eksponatlar, noyob kutubxona fondlari kabi aktivlar odatiy asosiy vositalardan farqli ravishda alohida tartibda hisobga olinadi.

Ijodiy loyihalarning vaqtinchalik xarajatlari. Spektakl, konsert, ko'rgazma kabi ijodiy tadbirlar uchun vaqtincha ajratilgan mablag'lar va xarajatlar alohida hisobga olinadi va loyiha yakunida yakuniy hisob-kitob qilinadi.

Moliyalashtirish manbalarining turlicligi. Davlat byudjeti, grantlar, xalqaro moliyaviy ko'mak, xayriya yordamlari – bularning har biri alohida moliyaviy hisobotda ajratilgan tartibda yuritiladi.

Notijorat faoliyatni hisobga olish. Ko'plab madaniyat muassasalari foyda olishni ko'zlamagan holda ishlaydi. Bu ularning buxgalteriya hisobotida daromad va foyda ko'rsatkichlaridan ko'ra, mablag'lar harakati va ularning maqsadga muvofiqligi ko'proq ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Moliyaviy hisobotlarning davlat organlariga topshirilishi. Madaniyat muassasalari o'z moliyaviy faoliyatini hisobot shaklida tegishli vazirlik yoki mahalliy hokimiyat organlariga belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bu hisobotlar smeta ijrosi, daromadlar va xarajatlar, mablag'lar manbai bo'yicha taqsimotni o'z ichiga oladi.

Hisob-kitobda mualliflik va litsenzion huquqlarning inobatga olinishi. IJT (intelektual mulk) obyektlari bilan ishlashda mualliflik haqlari, ijro huquqlari, litsenziya to'lovlari aniq hisobga olinadi va tegishli huquqiy asosda rasmiylashtiriladi.

Umuman olganda, madaniyat sohasidagi buxgalteriya hisobini takomillashtirish va audit nafaqat moliyaviy tartibni ta'minlashga, balki jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni oshirishga, shuningdek, ushbu muassasalarning strategik rivojlanishini ta'minlovchi moliyaviy boshqaruv tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari har yili xarajatlar smetasini tuzish va ro'yxatga olish jarayonida daromadlar va xarajatlar prognozini shakllantiradilar.

### 1-jadval

#### Davlat kino muassasalarining buxgalteriya hisobini yuritishning xususiyatlari<sup>1</sup>

| Hisob yuritish yo'nalishi              | Xususiyati                                                                    | Izoh                                                                                       |
|----------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| Moliyalashtirish manbalari             | Davlat byudjeti, grantlar, homiylik, kinofilm daromadlari                     | Har bir manba alohida buxgalteriya hisobida aks ettiriladi                                 |
| Xarajatlar smetasi                     | Loyihaviy (film asosidagi) xarajatlar rejalashtiriladi                        | Har bir kino mahsuloti uchun alohida smeta tuziladi                                        |
| Intellectual mulk huquqlari            | Mualliflik va litsenziyaviy to'lovlar aniq hisobga olinadi                    | Ssenariy, musiqalar, tasvirlar huquqiy jihatdan mustahkamlanadi                            |
| Asosiy vositalar va aktivlar hisoboti  | Kino texnikalari, montaj uskunolari, videomateriallar – maxsus tartibda       | Ular eskirish me'yoriga ko'ra va texnik ko'rsatkichlari asosida hisobga olinadi            |
| Film ishlab chiqarish bosqichlari      | Har bosqichda (ssenariy, suratga olish, montaj, reklama) xarajatlar bo'linadi | Buxgalteriyada xarajatlar ishlab chiqarish sikli bo'yicha guruhlanadi                      |
| Vaqtinchalik ishchilar va ijodiy guruh | Shartnomaviy asosda ishlovchilar uchun alohida hisob yuritiladi               | Operatorlar, aktyorlar, ssenaristlar – mehnat shartnomalari yoki xizmat ko'rsatish asosida |
| Kino mahsulotidan tushgan daromadlar   | Chipta sotuvi, telekanallarga sotish, onlayn platformalardan tushumlar        | Ular maxsus daromadlar sifatida hisobga olinadi                                            |
| Davlat organlariga hisobot topshirish  | Har chorakda smeta ijrosi, daromadlar va xarajatlar bo'yicha hisobotlar       | Moliyaviy nazorat va shaffoflikni ta'minlash uchun zarur                                   |

Davlat kino muassasalarining buxgalteriya hisobini yuritish o'ziga xos murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Ushbu muassasalarda hisob-kitob ishlari, odatdagi

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

byudjet tashkilotlariga nisbatan, ijodiy mahsulot ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari, mualliflik huquqlari, vaqtinchalik ijodiy guruhlar bilan shartnomalar tuzilishi, shuningdek daromad manbalarining xilma-xilligi kabi omillar bilan farqlanadi.

Xarajatlar har bir film yoki loyiha bo'yicha alohida smeta asosida rejalashtiriladi va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Kino mahsuloti bilan bog'liq aktivlar – texnika, asbob-uskunalar, videoyozuvlar – maxsus tartibda hisobga olinadi. Daromadlar esa chiptalar sotuvi, litsenziyalash, onlayn platformalar orqali tushgan tushumlar asosida shakllanadi va buxgalteriyada alohida aks ettiriladi.

Shu bilan birga, barcha moliyaviy operatsiyalar qonunchilik asosida yuritilishi, moliyalashtirish manbalarining to'g'ri aks ettirilishi va davlat organlariga o'z vaqtida hisobot taqdim etilishi zarur hisoblanadi. Bu esa davlat kino muassasalarida hisob yuritishda aniqlik, shaffoflik va javobgarlikni talab qiladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, madaniyat muassasalarida buxgalteriya hisobi odatiy byudjet hisobidan ancha murakkab va ko'p yo'nalishli bo'lib, u nafaqat moliyaviy intizomni, balki ijodiy faoliyatni moliyaviy jihatdan asoslashni ham ta'minlashi kerak. Bu sohada hisobot yuritish nafaqat texnik, balki kasbiy yondashuvni, qonunchilikka qat'iy rioya qilishni va ijodiy xususiyatlarni chuqur tushunishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniyat muassasalarini auditdan o'tkazishda differensial va tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Auditorlar nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari — ya'ni ijodiy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarning shakllanishi, intellektual mulk obyektlarining hisobga olinishi va loyihaviy asosda yuritiladigan smetalarni ham chuqur tahlil qilishlari lozim. Bu yondashuv auditorlik tekshiruvlarining chuqurligini oshiradi hamda buxgalteriya hisobining haqqoniyligini ta'minlaydi.

Natijada, moliyaviy intizom mustahkamlanib, davlat mablag'laridan foydalanishning shaffofligi ortadi, bu esa madaniy soha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, madaniyat muassasalarida audit faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda, buxgalteriya hisobini yuritishga doir maxsus metodika va baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Bunday yondashuv auditorlar, buxgalterlar va rahbarlar o'rtasida yanada yaqin hamkorlikni shakllantiradi va moliyaviy boshqaruvni yanada samarali qiladi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Loyihaviy asosda buxgalteriya hisobi yuritishni avtomatlashtirish. Har bir film yoki media loyiha uchun alohida modulli buxgalteriya dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu orqali smetadagi har bir xarajat avtomatik tarzda loyiha darajasida nazorat qilinadi.
- Intellektual mulk bilan bog'liq hisobotlar bo'yicha alohida normativ hujjatlarni ishlab chiqish. Ssenariy, musiqalar, montaj materiallari kabi ijodiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritishda yagona me'yorlar ishlab chiqilishi zarur. Bu auditorlik tekshiruvlarida aniqlikni oshiradi.

- Ijodiy guruhlar bilan tuziladigan shartnomalarning huquqiy va moliyaviy standartlashtirilgan shaklini joriy etish. Vaqtinchalik ijodiy xodimlar bilan tuziladigan shartnomalar yagona namunaviy shakl asosida rasmiylashtirilsa, buxgalteriya va soliq hisobi soddalashadi.

- Film ishlab chiqarish jarayonlarining buxgalteriya bosqichlariga moslashtirilgan metodikasini ishlab chiqish. Har bir bosqich: tayyorgarlik, suratga olish, montaj, marketing uchun alohida hisob yuritish tartibi ishlab chiqilishi lozim. Bu esa xarajatlar tahlilini aniq olib borishga xizmat qiladi.

- Buxgalteriya xodimlari uchun madaniyat sohasi va ijodiy jarayonlarga oid malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Buxgalterlar kino ishlab chiqarishning texnologik va ijodiy jihatlarini chuqur tushunishi uchun maxsus seminarlar va o'quv kurslari joriy etilishi kerak.

- Maxsus daromadlar harakatini aniqlashtirish va ularning maqsadli sarfini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish. Kino mahsulotlaridan tushgan daromadlarning hisobini ochiq-oydin va shaffof yuritish, ularni qayta investitsiya qilish imkoniyatlarini tartibga solish lozim.

- Audit va moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirish. Kino muassasalari faoliyatining moliyaviy shaffofligini ta'minlash uchun ichki audit bo'limlari tashkil etilishi yoki mustaqil auditorlar jalb qilinishi tavsiya etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Семенихин В.В. Расходы будущих периодов в учреждениях культуры // Все для бухгалтера. 2010. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rashody-buduschih-periodov-v-uchrezhdeniyah-kultury>

2. Давидьян Лариса Васильевна Особенности деятельности учреждений культуры в рыночных условиях и анализ ее эффективности // Учет и статистика. 2005. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-deyatelnosti-uchrezhdeniy-kultury-v-rynochnyh-usloviyah-i-analiz-ee-effektivnosti>

3. Степашин С.В. Государственный аудит: введение в специальность. Вступительная лекция / С. В. Степашин. — 07.09.2010 г. — Режим доступа: [http://www.nisse.ru/work/projects/reports/reports\\_249.html](http://www.nisse.ru/work/projects/reports/reports_249.html) , свободный. — Заглавие с экрана. -Яз.рус.

4. Кабашкин В. А. Повышение роли внутреннего аудита и контроля в условиях рыночной экономики / В. А. Кабашкин, В. А. Мышов // Международный бухгалтерский учет. -2011. — № 13. — С. 36-46.

5. Помпеев ЮЛ. Экономика культуры. СПб.: КультИнформПресс, 1999. 80с.

6. <https://studfile.net/preview/9549020/page:8/>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, iyun, 6-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**